



**O'spirinlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk o'spirinlik
va yoshlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

Adixamjonova Xumora

Qobuljonova Diyora

Fizika yo'nalishi 1-bosqich 101-guruh talabalari

Ibragimova Xurshida Xusanbayevna

Andijon davlat pedagogika instituti

„Pedagogika psixologiya“ kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: O'spirinlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'spirinlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtiyoqlashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'spirinlik yoshiga o'tish, asosan 5-sinflardan boshlanadi. „Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas“ ayni shu ta'rif o'spirinlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu maqolada hozirgi kundagi o'pirin bolalarning psixik rivojlanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'smir, yetakchi faoliyat, muloqot, psixalagik yangilik, o'z-o'ziga baho berish, jinsiy yetilish jarayoni.

Kirish.



O'smirlik -bolalalikdan kattalikga o'tish davri bo'lib,fiziologik va psixalagik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi,hayotdagi turli narsalarga qiziqishi,yangilikga intilishi ortadi,xarakteri shakillanadi,ma'naviy dunyosi boyiydi,ziddiyatlar avj oladi.O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib,yangi hislar,sezgilar va jinsiy hayotga taluqli chigal masalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixalagik o'zgarishlardir.Bo'yga qarab o'sish paysimon ilik suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi:qiz bolalar 5-7sm o'ssalar, o'g'il bollar 5-10 sm o'sadilar.Og'iz bo'shlig'i va halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu o'g'il bollarda qiz bolalarga nisbatan ko'proq darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazminroq bo'lib qoladi,do'rillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur'at bilan o'ssa ham,mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo'l suyaklarining o'sish sur'ati orqada qoladi. Ularda fiziologik o'zgarishlar: Jinsiy yetilishning boshlanishi bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organism tuzilmalarining qaytadan shakillana boshlashidir. Psixalagik o'zgarishlar esa: O'smirlar o'zlari kattalardek tutishga harakat qiladilar. O'zlarining layoqat,qobilyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. O'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan,lekin kattalar taraqqiyotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida mustaqil xatti-harakatalrida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli shuningdek shaxsiy rivojining magistral chizig'I bo'lib hisoblanadi. O'rtoqlarining ta'siri ostida o'smir o'zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag'ishlasa bunday hollarda uning ba'zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo'lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqqaundan keyin



ehtiros yoki odatga aylanishi mumkin. O'smir o'ziga, o'zida ro'y berayotgan psixofiziologik o'zgarishlarga qiziqadi, u o'zini zo'r berib analiz qiladi, o'z-o'zini baholaydi. Unda boshqalar ham uning haqida o'ylashi, uning tashqi ko'rinishiga qiziqishi, fikrlari xulq-atvori va illyuziya paydo bo'ladi. O'smirlik yoshida psixofiziologik jihatdan end muhim xislat-voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada aqliy faoliyatda qiziqishda munosabatda xulq atvorning tashqi shakillarida o'z ifodasini topadi. Unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Jinsiy yetilish o'smirning bu yoshdagi xulq-atvoriga asosiy biologik vosita sifatida ta'sir o'tkazadi. Inson xulq-atvorning shakillanishiga irsiy omilning ta'siri borligini faqat nazariy jihatdan taxmin qilish mumkin, ammo empirik tadqiqotlar muhit ta'sirining o'rni ham kattagina qiymatga ega ekanligini ta'kidlamogda. Jumladan noto'liq olilaning o'smir tarbiyasidagi ro'li, ya'ni oila tarkibining tarbiyasi „qiyin“lar shakillanishiga ta'sir muhim sabablardan biri sifatida yuqori ko'rsatkichga ega emas. O'mirlik yoshi dunyoqarash, etiqod, prinsip, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakillanadigan davr hisoblanadi. O'mir ulg'aygan sari unda „Ideal men“, „Axloqiy men“ va „Haqiqiy men“ singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakillana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaroq bo'lib qoladi. O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtayi Nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smit shaxsini tarkib topdirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar.

Xulosa.

Biz ushbu maqoladan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'mir yoshdagi bolalar o'zlarni keyinchalik jamiyatda o'rnlari topishlari uchun erkin firlash va fikrlarini aytishga imkon



berisimiz kerak. Agarda ular o'z fikrlarini yoshlikdan bayon qila olishmasa kelajakda o'z fikri yo'q, boshqlarning aytganini qiladigan bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov. I, Zufarova M. „Umumiy psixalogiya”. O'z.FMJ.2008
2. Xaydarov F.I. Xalilova N. „Umumiy psixalogiya” 2009
3. Davletshin M.G. MAVlonov.M.M. To'ychiyeva.S.M. „Yosh va pedagogik psixalogiyasi” 2009